



**ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DO'STONA
MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI (HADISLAR MISOLIDA)**

*Andijon davlat universiteti tayanch doktranti
Kuranova Ismigul Xolmurod qizi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255952>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirishning dolzarb jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, do'stona, munosabat, hadislar, tarbiya, ijtimoiylashuv

Do'stona munosabatlar tarbiyachi pedagog va bolalar hayotidagi eng muhim insoniy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. Har qanday jamiyat do'stona munosabatlarga ma'naviy ehtiyoj sezadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, ularga insoniy fazilatlarini singdirish, ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunday munosabatlar jamiyatda o'zaro tushunish, tinchlik va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu munosabatlar zamirida inson hayotining turli bosqichlarida psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasini o'tash, quvonchlariga sherik bo'lish, dardlarini yengillatish, jamoadoshlarini boricha qabul qilish, bir-birlarini yutuqlaridan xursand bo'lish va kamchiliklarini tuzatishga yordam berishga intilish, asrab-avaylash, bir-biriga mehribon bo'lish, ularni qadrlash, sadoqat, ishonch va samimiyatga asoslangan eng buyuk munosabatlar o'rnatish kabilar yotadi. Do'stona munosabatlar nafaqat yaqin do'stlar o'rtasida, balki oila, ta'lim maskanlari, kasbiy faoliyati jarayoni, qo'ni-qo'shnihilik, qarindosh-urug', umuman, jamiyat ijtimoiy strukturasi barcha bosqichlarida integratsiyalashgan holda shakllanishi lozim. Do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish muhimdir:

- Samimiyat va sadoqat – inson boshqalar bilan ochiq va halol munosabatda bo'lishi kerak.
- Hurmat va e'tibor – har kimning fikri, hissiyotlari va huquqlari, qadriyatlarini qadrlanishi lozim.
- Yaxshilik va mehribonlik – yordam qo'lini cho'zish va boshqalarning farovonligiga befarq bo'lmaslik do'stona muhitni mustahkamlaydi.
- Kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish – sabr-toqat va tushunish orqali muammolarni hal qilish lozim.

Do'stona munosabatlar insonning baxtiyor hayot kechirishi, ruhiy xotirjamligi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviylik ruhi singdirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu munosabatlar tashkilotni gullab-yashnashi, yutuqlarga erishishi va o'zini oqlashiga sabab bo'ladigan asosiy vositalardan biridir. Shu sababli jamoaning har bir a'zosi o'zida do'stonalik sifatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Do'stlik rishtalari insonlar orasidagi eng mustahkam va uzoq davom etadigan ijtimoiy aloqalardan biri hisoblanadi. Ushbu munosabatlarning ildizi islom dinimizga, hadis-u hikmatlarga borib taqaladi. Shuning uchun bu masala nafaqat ijtimoiy psixologiya, balki diniy-axloqiy asoslar bilan ham chuqur bog'liqdir. Do'stonalik tuyg'ularini pedagogik va diniy-axloqiy tamoyillar asosida shakllantirish ushbu tuyg'ularni mustahkam bo'lishida xizmat qiladi. Tasavvuf olamida do'stlikning asl mohiyati — bu bir-birining ruhiy holatini tushunish, bir-biriga yordam berish va zarar yetkazmaslikdir. Tasavvufdagi do'stlik, nafaqat tashqi ko'rinish va foyda keltiradigan munosabatlar sifatida, balki ruhiy va ma'naviy o'sishga, bir-birini Alloh yo'lida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aloqadir. Har bir do'st bir-birining ruhiy holatini tushunishga, qiyinchiliklarda birga bo'lishga va do'stni ruhiy



poklikka chaqirishga intiladi. Qur’oni karim va hadislarida do’stlik va insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarga alohida ahamiyat berilgan. Ushbu diniy-axloqiy tushunchalar odamlar o’rtasida salohiyatli do’stlik rishtalarini shakllantirishda muhim o’rin tutadi. Xususan, islomiy manbalarda insonlar o’rtasidagi mehr-oqibat, hurmat va do’stlik rishtalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. Islomda do’stona munosabatlarning tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

- samimiylilik va halollik –Alloh roziligi uchun do’st bo’lishi, o’z manfaatini ko’zlamaslik va dunyo matohlariga berilmaslik;
- o’zaro yordam va qo’llab-quvvatlash – qiyin vaziyatda do’stga yordam berish, g’amxo’rlik qilish,;
- g’iybat va xiyonatdan tiyilish – do’stlikni buzadigan narsalardan uzoq turish, o’zga bir insonni sirini saqlash, moliga, joniga, omonatiga va so’ziga sodiq bo’lish;
- kelishmovchiliklarni tinch yo’l bilan hal qilish – o’zaro tushunmovchilik bo’lsa, uni yaxshi yo’l bilan bartaraf etish, xatolarini kechirish, xato qilishni insonga xos fazilat sifatida qarash;
- g’azab qilmaslik – g’azab qilish insonlarga ruhiy va ma’naviy zarar yatkazadi, jamiyatdan, do’stlar jamoasidan ajralib qolishga sabab bo’ladi. Payg’ambarimiz g’azab qilmaslikka buyurganlar;
- odob va axloq qoidalariga amal qilish – insoniylikning eng muhim fazilati bo’lib, do’stona munosabatlarni mustahkamlaydi, insonlarni yaxshilikka chaqirish boshqa bir insonning vazifasi hisoblanadi.

Do’stlikni mustahkamlovchi omillar:

- Salomlashish, salom berish va salomni qabul qilish do’stlikning muhim qismidir.
 - Hadya berish va hadyani qaytarish
 - Kechirimli bo’lish.
- Do’stlikni buzuvchi odatlar:
- G’iybat qilish;
 - Yolg’on gapirish;
 - Hasad qilish;
 - O’zboshimchalik va g’azab.

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishida ular o’rtasida dinimizda belgilab qo’yilgan haqiqiy musulmonlarga xos axloqiy fazilatlarining tarkib topishi ham muhim hisoblanadi. Yuksak axloqqa erishgan tarbiyachi-pedagoglar jamoadoshlari va qo’l ostidagagi guruh tarbiyalanuvchilarning mavqeyi, tashqi ko’rinishiga qarab emas ularning qalbiga, ichki olamiga nazar soladi, ta’lim-tarbiya jarayonida har bir odamni qadrlaydi, maktabgacha ta’limning barcha ishchi hodimlari bilan do’stona munosabatlar o’rnatadi, ilm yo’lida berishni kasbiga aylantiradi, yaxshilik yo’lida hech qanday manfaatlarni ko’zlamay og’ir kunida yordam beradi, jamoadoshlar bir-birini og’a-inidek qabul qiladi, insoniy fazilatlarini, odamgarchilik tuyg’ularini islom dinini ustuni deb biladi va shioriga aylantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari ushbu sifatlarni o’zida jamlashi jamoani birlashuviga asos bo’lib xizmat qiladi. Bu kabi ham diniy ham dunyoviy bilimlarga ega salohiyatli pedagoglar qo’lida tarbiyalangan bolalardan bilimli, axloqiy fazilatlariga ega, jamiyat rivoji uchun xissa qo’sha oladigan yetuk shaxslar shakllanadi.

Do’stonalik tuyg’ularini asl mohiyatini tushunib anglashga hadislar yordam beradi. Hadis ilmini chuqur o’rgangan muhaddis olim Imom Al-Buxoriy “Al-adab al-mufrad” asarida “Abu Dardo (r.a.) Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilishicha, Rasululloh(s.a.v.): “Yaxshi axloqdan ko’ra tarozuni bosadigan hech narsa yo’qdir”, deb marhamat qilganlar”. Ushbu hadisdan ma’lum bo’ladiki, axloq insonlar mavqeyini oshiradi, odobli-axloqli insonlar bir-biriga dushmanlik qilmaydi, boyluk va manfaat yo’lida musobaqa qilishdan hayo qiladi. Ushbu fazilatga ega insonlarning atrofida unga faqat yaxshilik va omonlik istaguvchi kishilar ko’p bo’ladi. Kishilar



o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatar ekan, albatta axloqiy normalarni o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak. Axloq egalari bir-biriga ko'mak beradi, axil-inoq hayot kechiradi, ayb-u nuqsonlariga ko'z yumadi, o'zgaralar qalbiga ozor yetkazishdan saqlanadi. Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) hadislarida mo'minlar biri-biriga oyna kabi kamchiliklarini to'g'rilashga yordam berishi kerakligini ta'kidlagan. Haqiqiy mo'minlikning belgisi esa boshqa bir mo'minning unga jonini, molini, ishonchini, obro'sini ishongandan vafo qilgan kishidir. Mo'min kishi ijtimoiy hayotda o'ziga omonat qilingan narsalarni xuddi o'ziniki kabi asrab-avaylaydi, bildirilgan ishonchga hiyonat qilmaydi, sirlarini oshkor qilmaydi, xasad qilishdan saqlanadi, insonlarda ko'rgan kamchiliklarini sir tutadi, boshqalarda ko'rgan nuqsonlarni o'sha odamning yolg'iz o'ziga aytadi. Mo'minning ushbu fazilatlarini boshqalarga do'stona munosabatda bo'lishni anglatadi. Mo'minlik fazilatiga ega insonlarning do'stlari ko'p bo'lib, uni sevuvchi insonlar bisyor bo'ladi. Mo'min kishi go'zal, mukammal axloq sohibi hisoblanib, islomda axloq va odob juda yuqori qadrlanadi va bu insonning ijtimoiy hayotidagi o'rnini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Agar insonda yaxshi odob va mukammal axloq bo'lsa, bu uning do'stligidan, odamlarni unga bo'lgan hurmatida namoyon bo'ladi. Do'stlar va sevuvchi insonlarning ko'pligi – bu insonning jamiyatdagi o'rnini, uning qalbining pokligini va axloqiy yetukligini, chin dildan doim yaxshilikka intilishini ko'rsatadi. Odobli, axloqli odam boshqa bir insonga o'zini do'sti nazari bilan qaraydi, uni ezgulikka yetaklaydi, yomon ishlardan uzoqlashishga chaqiradi. Do'stlik munosabatlarini zamirida odob-axloqlik sifatleri yotadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkiloti ham misoli bir katta oiladir. Oila deganda bir ota-onadan tarqagan farzandlarning axil-inoq, manfaatlardan yiroq, a'zolar bir-birini rivoji uchun jon kuydirish va boshqa yuksak qadriyatlar ko'z o'ngimizda gavdalansa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari qatnashuvchilarini ham xuddi shunday tasavvur qilgan holda faoliyat yuritganda tashkilot yanada takomillashadi, jahon andozalariga javob beradigan kelajak avlodlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan aadabiyotlar.

1. “Al-adab al-mufrad”. Imom Ismoil al-Buxoriy Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=588.0> Internet uchun Umarbek, Laylo va Doniyor tayyorlagan. www.ziyouz.com 2007 201. 46-b
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Al-jomi' as-sahih (1-jild) Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasini Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991 403 b
3. Mirzayeva Dilfuza “Maktabgacha pedagogika” o'quv qo'llanma Toshkent 2022-140 b.